

OLIY TA’LIMDA NOGIRONLIGI BOR TALABALARNING OQUV-TARBIYAVIY FAOLIYATLARINI TASHKIL QILISHNING METODIK O’ZIGA HOSLIGI.

**Mamatqulov Mirzaolim Xaydaralievich
NamDU “Jismoniy madaniyat va sport”
kafedrası kat.o‘qit., PhD.**

Annotatsiya: Maqolada nogironligi bor oliy ta’lim talabalarga davlat tomonidan qilinayotgan g’amho‘rliklar hamda ularning jismoniy, ruhiy va ahloqiy sifatlarini shakllantirishda jismoniy mashqlarning roli haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nogironlik, g’amho‘rlik, o‘z-o‘ziga xizmat, variantiv texnologiya.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida, oliy ta’lim tizimida nogironligi bor talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ta’lim jarayonida shaxslararo munosabati, real hayotga ijtimoiy moslashish, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorlash, o‘z-o‘ziga xizmatni shakllantirish, nogironligi bor talabalar bilan ishlash variantiv texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda nogironligi bo‘lgan bolalarning maxsus va inklyuziv ta’lim xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Aholining ijtimoiy himoya qilish nogiron va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash” natijasida ustivor vazifa etib belgilangan. Intellektida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlararo aloqadorlik asosida geometrik tasavvurlarni shakllantirishni pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli, 2019-yil 9-yanvarda “Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

«O‘zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonunda «jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxs nogiron hisoblanadi» deya ta’rif beriladi. Shunday qilib, nogironlik kasallikka yoki inson tanasi a‘zolarining funksiyalari buzilishiga tenglashtiriladi. Ammo, BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasida «nogironlik — tana funksiyalari buzilgan insonlar hamda *munosabat va infratuzilma bilan bog‘liq to‘siqlar* orasidagi o‘zaro aloqa natijasida vujudga keladigan holat» deb ta’kidlanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bu nafaqat inson tanasining nuqsonlari, balki qulay atrof-muhit yo‘qligi va bunday odamlarning jamiyat hayotida ishtirok etishiga qarshilik qilayotgan to‘siqlar va salbiy stereotiplardir.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida Konvensiya”da nogironlikning quyidagi ta’rifini keltiriladi: **Nogironlar** – bu buzilishlar, faoliyat cheklovleri va ishtirok etish cheklovlarini o‘z ichiga olgan himoya atama.

Nogironlik – bu tana funktsiyasi yoki tuzilishidagi muammo; faoliyatni cheklash – bu shaxs tomonidan vazifani yoki harakatni bajarishda duch keladigan qiyinchilik; qatnashishni cheklash esa hayotiy vaziyatlarga aralashishda shaxs boshdan kechirgan muammolar. Shunday qilib, nogironlik nafaqat sog‘liq uchun muammo, balki bu inson tanasining

xususiyatlari va u yashaydigan jamiyat xususiyatlari o’rtasidagi o’zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi murakkab hodisadir.

Shunday ekan, **nogironlik** (ruscha: *invalid*) – kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo’qotish jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxsdir.

Fiziologik funksional imkoniyatlar (PFC)ning cheklovi – bu shaxsning kundalik hayotdagi jismoniy vazifalarini bajarish qobiliyatini va ushbu vazifalarni bajarish qulayligini aniqlaydigan ko’rsatkichlar darajasi.

PFC ko’rsatkichlar darajasi oldinga ijobiy yoki salbiy siljish bilan ko’tarilish va pasayish natijalari bilan belgilanadi. Jismoniy, aqliy-ruhiy zaiflik, kognitiv kasalliklar yoki jismoniy buzilishlar, bularning barchasi odamlarni nogiron deb belgilashga olib kelishi mumkin bo’ladigan ko’rsatkichlar deb belgilangan. Dunyo bo’yicha nogironlar to’g’risidagi hisobotga ko’ra, dunyo aholisining 15 foizi yoki 1 milliard kishi nogironlikdan aziyat chekmoqda.

Insoniyat o’z tarixida har doim ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan imkoniyatlari cheklangan odamlar bilan to’qnash kelgan. Rivojlanishning turli davrlarida ularga munosabat ham turlicha bo’lgan. «O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida» O’zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan «**nogiron** — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs. **Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi** – shaxsning o’ziga o’zi xizmat qilish, harakatlanish, yo’lni topa olish, muloqot qilish, o’z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek o’qish va mehnat faoliyati bilan shug’ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to’la yoxud qisman yo’qotganligi»dir. Bu so’z lotincha *invalidus* so’zidan olingan bo’lib, aynan «kuchsiz, kuchli emas» degan ma’no anglatadi, ya’ni, *in* – «emas» + *validus* – «kuchli», boshqacha aytganda, bu – jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy jihatdan kamchiligi bo’lgan inson faoliyatida mavjud to’siq yoki cheklovlarni bildiradi.

1. Individual yondashuv asosida nogironligi bor talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish natijalarga erishish imkoniyatini yaratuvchi dastlabki va fundamental ahamiyatga loyiq omil, ma’lum bo’lishicha, bu o’ziga xos umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik tashkil etar ekan. Lekin o’rganilgan va qiyosiy tahlil qilingan manbalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, sportni deyarli barcha turlarida umumiy jismoniy sifatlar yoki ularning tarkibiga mansub komponentlari yoki shu jismoniy sifatlar turlari ustuvor jihatga ega ekanligi hali ochib berilmagan ekan.

2. Tahlil qilingan manbalarda nogironligi bor talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish deyarli barcha turlarida yuksak texnik-taktik mahoratga erishish va yuksak natijalar ko’rsatishda tezkorlik-kuch, maxsus chidamkorlik va egiluvchanlik ustuvor ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan., ayniqsa nogironligi bor talabalarni bu jismoniy tayyorgarlikning qaysi biri ustuvor rolga ega ekanligi haqida ilmiy asoslangan fikr-mulohaza va g’oyalarning yo’qligi, ular yuzasidan tavsiyalar berilmaganligi ma’lum bo’ldi.

3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati bo’yicha nashrdan chiqarilgan ilmiy maqolalar, ilmiy ma’ruzalar va o’quv adabiyotlarida ushbu sport turi bo’yicha malakali sportchilarni tayyorlash masalasida asosan texnik-taktik tayyorgarlik jarayonini maqsadli tashkil qilishga urg’u berilgan bo’lsada, ammo qaysi bir jismoniy sifat yoki sifatlar komponentlari bu borada yetakchi rolni o’ynashi ochib berilmagan.

4. Mavzu bo’yicha o’rganilib chiqilgan manbalardan ma’lum bo’ldiki, nogironligi bor talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish va uning texnik-taktik usullari turlaridan nafaqat jismoniy jihatdan, balki o’zining milliylik xususiyati bilan ham farq qiladi, va bunday mavzular bugungi kungacha o’zining ilmiy poydevoriga ega emas.

5. Nogironligi bor talabalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, shuningdek moslashuvchanlikni rivojlantirish zarur, chunki bu federal yoki kuchning talablariga mos keladigan muayyan darajaga to’g’ri keladi.. Moslashuvchanlikni yaxshilashga, bo’g’imlarning harakatchanligini oshirishga qaratilgan. Tarmoqli mashqlarning sekin va tinchlashishi nafaqat har xil sog’liq va sport vazifalarini hal qilish, balki neyro-emotsional stresslarni, faol dam olishga ham ta’sir qiladi deb ishoniladi. Insonning kapital jismoniy xususiyatlarini - kuch, tezlik, bajarish vazifasini muntazam mashqlar rivojlanayotganida hal qilish oson, agar bardoshlilikni yaxshilasak, agar moslashuvchanlikni rivojlantirsak, unda tayyorgarlik ham yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида.

2. Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги таҳрири). – Тошкент, 2008 йил 11 июль, 162-сон Ўзбекистон Республикаси Қарори билан кучга кирган.

3. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида Конвенция. – Нью-Йорк, 2006 йил 13 декабрь. Ўзбекистон Республикаси учун 2021 йил 28 июлдан кучга кирган. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги ЎРҚ-695-сонли Қонуни билан ратификация қилинган.

4. “Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги таҳрири). – Тошкент, 2008 йил 11 июль, 162-сон Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори билан кучга кирган.

5. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида Конвенция. – Нью-Йорк, 2006 йил 13 декабрь. Ўзбекистон Республикаси учун 2021 йил 28 июлдан кучга кирган. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги ЎРҚ-695-сонли Қонуни билан ратификация қилинган.